tirish va o‘quv natijalarini yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida UDL yondashuvi oliy ta’lim muassasalarida inkluziv muhitni shakllantirishning samarali vositasi ekanligi asoslandi. U pedagoglarga ta’lim mazmunini moslashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda barcha talabalar uchun qulay o‘quv sharoitlarini yaratish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

–oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning inkluziv kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlariga UDL tamoyillarini kiritish;

–bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida UDL texnologiyalariga oid maxsus modullarni joriy etish;

–ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini turli formatlarda taqdim etish hamda baholashning moslashuvchan shakllaridan foydalanishni kengaytirish;

–raqamli ta’lim platformalarini UDL tamoyillari asosida takomillashtirish;

–oliy ta’lim muassasalarida inkluziv ta’lim samaradorligini baholashda UDL mezonlaridan foydalanish.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Universal Design for Learning modeli oliy ta’limda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, pedagoglarning inkluziv kompetensiyasini takomillashtirish hamda barcha talabalar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (Convention on the Rights of Persons with Disabilities). Nyu-York, United Nations, 2006, 37-bet.

(2). World Health Organization. World Report on Disability. Geneva: WHO Press, 2021, 325 p.

(3). UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All. Paris, UNESCO Publishing, 2020, 512 p.

(4). CAST. Universal Design for Learning Guidelines Version 3.0. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2024, 45 p.

(5). Meyer A., Rose D.H., Gordon D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2014, 234 p.

(6). Rose D.H., Meyer A. Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. Alexandria, VA: ASCD, 2002, 220 p.

(7). Florian L. What Counts as Evidence of Inclusive Education? European Journal of Special Needs Education. 2014, vol. 29, № 3, p. 286–294.

(8). Ainscow M. Developing Inclusive Education Systems: What Are the Levers for Change? Journal of Educational Change. 2005, vol. 6, № 2, p. 109–124.

(9). Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol, Centre for Studies on Inclusive Education, 2016, 190 p.

(10). International Labour Organization. Disability and Employment: Global Trends Report. Geneva: ILO, 2020, 118 p.

(11). World Bank. Disability Inclusion Overview. Washington DC: World Bank Publications, 2021, 74 p.

(12). University of East London. Inclusive Education and Universal Design for Learning in Higher Education. – London, UEL Press, 2022, 85 p.

(13). Rix J., Sheehy K., Fletcher-Campbell F., Crisp M., Harper A. Exploring Inclusive Pedagogy and Learning. London, Routledge, 2020, 256 p.

Sulaymonova Dilora Abdurahmonovna (Buxoro davlat Tibbiyot instituti “O‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili” kafedrasi assistenti; E-mail: dildora_sulaymonova@bsmi.uz)

BO‘LAJAK SHIFOKORLARDA EMPATIK KLINIK MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA DISKURSIV YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak shifokorlarning empatik klinik muloqot ko‘nikmalarini rus tili ta’limida rivojlantirish imkoniyatlari nazariy va diskursiv tahlil hamda pedagogik modellashtirish asosida yoritiladi. To‘rt komponentli tuzilma, mashqlar tizimi, baholash mezonlari va 60 soatlik kurs taklif etiladi. Ushbu metodik yechimlar kasbiy rus tili mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan; samaradorlikni tajribada tekshirish kelgusidagi vazifadir.*

Kalit so‘zlar: *klinik empatiya, empatik muloqot, bo‘lajak shifokor, diskursiv yondashuv, rus tili, nutqiy strategiya, refleksiya.*

Сулаймонова Дилора Абдурахмоновна (Бухарский государственный медицинский институт, ассистент кафедры «Узбекский язык и литература, русский и английский языки»; E-mail: dildora_sulaymonova@bsmi.uz)

ВОЗМОЖНОСТИ ДИСКУРСИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЭМПАТИЧЕСКОГО КЛИНИЧЕСКОГО ОБЩЕНИЯ У БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация. *Возможности развития навыков эмпатического клинического общения будущих врачей при обучении русскому языку рассматриваются посредством теоретического и дискурсивного анализа и педагогического моделирования. Предложены четырёхкомпонентная структура, система упражнений, критерии оценивания и 60-часовой курс. Эти методические решения предназначены для профессионально ориентированных занятий; экспериментальная проверка эффективности является дальнейшей задачей.*

Ключевые слова: *клиническая эмпатия, эмпатическое общение, будущий врач, дискурсивный подход, русский язык, речевая стратегия, рефлексия.*

Sulaymonova Dilora Abdurakhmonovna (Bukhara State Medical Institute, Assistant, Department of Uzbek Language and Literature, Russian and English Languages; E-mail: dildora_sulaymonova@bsmi.uz)

POTENTIAL OF A DISCURSIVE APPROACH TO DEVELOPING EMPATHIC CLINICAL COMMUNICATION SKILLS IN FUTURE DOCTORS

Annotation. *This article examines opportunities to develop future doctors' empathic clinical communication skills in Russian language education through theoretical and discourse analysis and pedagogical modelling. A four-component structure, an exercise system, assessment criteria and a 60-hour course are proposed. These methodological proposals support professionally oriented Russian language classes. Experimental evaluation of their effectiveness remains a task for further research.*

Keywords: *clinical empathy, empathic communication, future doctor, discursive approach, Russian language, speech strategy, reflection.*

Kirish. Shifokorning kasbiy tayyorgarligi bemorni diqqat bilan tinglash, uning hissiy holatini anglash va tibbiy axborotni tushunarli yetkazishni ham qamrab oladi. Rus tili mashg'ulotlarida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish kasbiy-kommunikativ tayyorgarlikni kuchaytiradi. Tadqiqot maqsadi diskursiv yondashuv asosida empatik muloqotning komponentlari, mashqlari va baholash mezonlarini belgilashdir. Obyekt – kasbiy rus tili ta'limi; predmet – empatik klinik muloqotni rivojlantirish usullari. Muallifning metodik hissasi ularni 60 soatlik kursda tizimlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. L.Tan va hammualliflar klinik empatiyani bemor holatini anglash va g'amxo'rlikni muloqotda ifodalash bilan bog'laydilar [9]. T.van Deyk diskursni tushunishda kontekst, ishtirokchilar roli va maqsadining ahamiyatini ko'rsatadi [10]. Metatahlillar empatiyani rivojlantirishda maxsus ta'limiy mashg'ulotlar va nazariy tushuntirishni amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirishning imkoniyatlarini yoritadi [5;6]. Bu yondashuvlarni rus tili ta'limiga tatbiq etish uchun hissiy signallar, nutqiy javoblar va baholashni bog'laydigan topshiriqlar zarur.

Nazariy-metodik tadqiqotda ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, klinik dialoglarni diskursiv tahlil qilish va pedagogik modellashtirish qo'llanildi [1;2]. Avval klinik empatiya va diskurs tushunchalari o'rganildi, keyin o'quv dialoglaridagi hissiy signallar va javoblar qiyoslandi, yakunda mashqlar, kurs modullari va baholash mezonlari tizimlashtirildi. Muallifning pedagogik tajriba natijalari mazkur maqolada taqdim etilmagan.

Muhokama. Empatik klinik muloqot bemor hissiyotini anglash, vaziyatga mos nutqiy strategiyani tanlash, qo'llab-quvvatlashni ifodalash va o'z nutqini tuzatish ko'nikmalarini birlashtiradi [3;8]. Uning to'rt komponenti 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Bo'lajak shifokorlarning empatik klinik muloqot ko'nikmalari komponentlari

Komponent	Mazmuni	Kuzatiladigan harakat
Perseptiv-interpretativ	Hissiy holatni anglash	Xavotir va qo'rquvni aniqlash
Lingvopragmatik	Mos ifodani tanlash	Aniqlashtirish va qo'llab-quvvatlash
Interaktiv-strategik	Suhbatni boshqarish	Tinglash, axborotni izchil berish
Refleksiv-baholovchi	O'z nutqini tahlil qilish	Xatoni tuzatish, muqobil javob

Masalan, *"Я боюсь, что со мной произойдёт что-то серьёзное"* degan bemorga *"Не волнуйтесь, ничего страшного"* deyish uning xavotirini inkor etishi mumkin. *"Я понимаю, что эта ситуация вызывает у вас тревогу. Давайте подробно обсудим результаты обследования и дальнейшие шаги"* javobi esa hissiyotni tan olib, hamkorlikni taklif qiladi. Dialog vaziyat, ishtirokchilar maqsadi, hissiy holat va nutqiy ta'sir bilan birgalikda tahlil qilinadi [2;10-b.].

O‘quv materiallari sifatida klinik keyslar, bemor hikoyalari, audio-video dialoglar va mediamatnlar qo‘llanadi. Mashqlar quyidagi to‘rt guruhda tashkil etiladi.

Birinchi guruh bemor hissiyotini anglash va aniqlash mashqlarini o‘z ichiga oladi. Bunda talabalar matn yoki dialogdagi bemorning hissiy holatini aks ettiruvchi so‘zlar, grammatik shakllar, ohang va vaziyatga oid belgilarni aniqlaydi. Chunonchi, bemorning asosiy xavotiri va qo‘rquvi qaysi iboralarda namoyon bo‘layotganini topadi, shifokor uning hissiyotini qanchalik to‘g‘ri payqaganini baholaydi hamda muloqot uzilishiga olib kelgan noo‘rin javoblarni ko‘rsatib beradi.

Ikkinchi guruhga javoblarni qiyoslash va qayta ifodalash mashqlari kiradi. Talabalar bemor kechinmalari e’tiborga olingan va e’tibordan chetda qolgan javoblarni taqqoslab, suhbatga salbiy ta’sir qiluvchi jumlalarni qayta tuzadi. Masalan: *“Успокойтесь, вы слишком много думаете об этом”* degan qo‘polroq jumla o‘rniga *“Похоже, эта ситуация сильно вас беспокоит. Расскажите, пожалуйста, чего вы опасаетесь больше всего”* tarzidagi ifodani taklif etadi. Bu orqali ular bemorning xavotirini inkor etmay, suhbatni samimiy davom ettirish ko‘nikmasini egallaydi.

Uchinchi guruh – klinik vaziyatga mos muloqot tuzish mashqlari. Bunda talaba muayyan holat uchun shifokor replikasini yoki to‘liq dialogni mustaqil ishlab chiqadi. Javob tuzishda bemorning yoshi, ijtimoiy maqomi, hissiy holati va tibbiy ma’lumotning qanchalik murakkabligi hisobga olinadi [8].

To‘rtinchi guruh rolli o‘yinlar va ularni tahlil qilish mashqlaridan iborat. Talabalar shifokor, bemor hamda kuzatuvchi vazifalarini bo‘lishib oladi. Simulatsiyadan so‘ng shifokorning muloqoti belgilangan mezonlar bo‘yicha tahlil qilinadi: u bemor xavotirini payqay oldimi, uni qanday so‘zlar bilan tan oldi va keyingi savolni qay darajada o‘rinli berdi? Aniqlangan kamchiliklar asosida muloqot qayta tuzilib, zarur bo‘lsa, rol qayta o‘ynaladi.

Natija. Matn yoki dialogning klinik mazmunga ega bo‘lishi uning o‘zi empatik muloqotni rivojlantirishi uchun yetarli emas. O‘quv materialida bemorning emotsional reaksiyasi, shifokorning nutqiy tanlovi va ushbu tanlovning muloqotga ta’sirini tahlil qilish imkoniyati bo‘lishi zarur. Bunday tuzilishda nazariy ma’lumot mustaqil maqsad emas, amaliy muloqot uchun kognitiv asos vazifasini bajaradi. Asosiy vaqt klinik vaziyatlarni tahlil qilish, dialog tuzish, rolli ijro, teskari aloqa va qayta ijroga ajratiladi.

Qisqa mashg‘ulotlarning imkoniyati 99 rezident ishtirok etgan tadqiqotda ham ko‘rsatilgan [7;1280–1286-b.]. Taklif etilayotgan 60 soatlik kurs nazariy tushuntirish, klinik tahlil, rolli ijro va refleksiyani birlashtiradi (2-jadval).

2-jadval

Rus tili ta’limida bo‘lajak shifokorlarning empatik klinik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan 60 soatlik kurs mazmuni

Modul	Mazmuni	Soat
1	Klinik empatiya va shifokor–bemor muloqoti	6
2	Bemorning hissiy va kommunikativ holati	8
3	Rus tilidagi empatik strategiya va taktikalar	12
4	Klinik dialog va mediamatnlarning diskursiv tahlili	10
5	Klinik keys, rolli o‘yin va simulativ muloqot	18
6	Refleksiya, teskari aloqa va yakuniy baholash	6
Jami		**60**

Empatik muloqotni baholashda shifokorning bemorni tushunishi va bu tushunishni suhbat davomida ifodalashi e’tiborga olinadi [3;4]. Mazkur kursda hissiy holatni aniqlash, mos ruscha ifodani tanlash, empatik javob, suhbatni boshqarish, nutqiy madaniyat va refleksiya hisobga olinadi. Kuzatuv varag‘i, yozma keys, rolli muloqot, video tahlili, o‘zaro baholash va o‘qituvchi ekspertizasi birgalikda qo‘llanadi.

Xulosa. Diskursiv yondashuv rus tili vositalarini klinik vaziyat va bemorning hissiy ehtiyoji bilan bog‘lashga imkon beradi. Taklif etilgan komponentlar, mashqlar va 60 soatlik kurs kuzatiladigan nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Kurs shaxsning umumiy empatiyasini tubdan o‘zgartirishni nazarda tutmaydi. Kelgusida uning samaradorligini tajriba va nazorat guruhlarida tekshirish, boshlang‘ich va yakuniy natijalarni qiyoslash hamda baholovchilar muvofiqligini aniqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий: теория и практика обучения языкам. Москва, “ИКАР”, 2009, 448 с.

(2). Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, “Перемена”, 2002, 477 с.

(3). Hojat M., Gonnella J.S., Mangione S., Nasca T.J., Magee M. Physician empathy in medical education and practice: experience with the Jefferson Scale of Physician Empathy. Seminars in Integrative Medicine. 2003, vol. 1, № 1, p. 25–41.

(4). Mercer S.W., Maxwell M., Heaney D., Watt G.C.M. The consultation and relational empathy (CARE) measure: development and preliminary validation and reliability of an empathy-based consultation process measure. Family Practice. 2004, vol. 21, № 6, p. 699–705.

(5). Ngo H., Sokolovic N., Hu J., Jenkins J. A systematic review identifying effective teaching methods and their combinations for increasing empathy in physicians: pairwise and network meta-analysis. BMC Medical Education. 2025, vol. 25, Article 1483, DOI: 10.1186/s12909-025-07917-x.

(6). Ngo H.L., Sokolovic N., Jenkins J.M. Teaching cognitive and affective empathy in medicine: a systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials, Medical Education Online. 2025, vol. 30, № 1, Article 2501263.

(7). Riess H., Kelley J.M., Bailey R.W., Dunn E.J., Phillips M. Empathy training for resident physicians: a randomized controlled trial of a neuroscience-informed curriculum. Journal of General Internal Medicine. 2012, vol. 27, № 10, p. 1280–1286.

(8). Silverman J., Kurtz S., Draper J. Skills for Communicating with Patients. 3rd ed. London, New York, Radcliffe Publishing, 2013, XVIII, 305 p.

(9). Tan L., Le M.K., Yu C.C. et al. Defining clinical empathy: a grounded theory approach from the perspective of healthcare workers and patients in a multicultural setting // BMJ Open. 2021, vol. 11, № 9, Article e045224. DOI: 10.1136/bmjopen-2020-045224.

(10). Van Dijk T. A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.

Ibraimov Marat Abdiganievich (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi e-mail: ibraimov.marat1406@gmail.com)

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FORMATIV VA SUMMATIV BAHOLASHNI FUZZY MANTIQ ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada elektron ta'lim muhitida formativ va summativ baholash jarayonini fuzzy mantiq asosida takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. O'quvchilarning bilim va faoliyatini ko'p mezonli baholash, noaniqliklarni hisobga olish hamda yakuniy elektron bahoni shakllantirish modeli taklif etiladi. Model fuzzifikatsiya, fuzzy inferensiya va defuzzifikatsiya bosqichlariga asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *elektron ta'lim, formativ baholash, summativ baholash, fuzzy mantiq, noaniqlik, elektron baholash, ko'p mezonli baholash.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФОРМАТИВНОГО И СУММАТИВНОГО ОЦЕНИВАНИЯ В ЭЛЕКТРОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЧЁТКОЙ ЛОГИКИ

Аннотация. *В статье рассматривается вопрос совершенствования формативного и суммативного оценивания в электронной образовательной среде на основе нечеткой логики. Предлагается модель многокритериального оценивания знаний и учебной деятельности обучающихся с учетом неопределенности. Модель включает этапы фаззификации, нечеткого вывода и дефаззификации.*

Ключевые слова: *электронное обучение, формативное оценивание, суммативное оценивание, нечеткая логика, неопределенность, электронное оценивание, многокритериальное оценивание.*

IMPROVING FORMATIVE AND SUMMATIVE ASSESSMENT IN AN E-LEARNING ENVIRONMENT BASED ON FUZZY LOGIC

Annotation. *The article considers the improvement of formative and summative assessment in an electronic learning environment based on fuzzy logic. A model for multicriteria assessment of students' knowledge and learning activities is proposed, taking into account uncertainty. The model includes fuzzification, fuzzy inference, and defuzzification stages.*

Keywords: *e-learning, formative assessment, summative assessment, fuzzy logic, uncertainty, electronic assessment, multicriteria assessment.*

Kirish. Elektron ta'lim muhitining rivojlanishi o'quvchilarning bilim va faoliyatini baholashning zamonaviy yondashuvlarini talab etmoqda. An'anaviy baholash o'quvchining o'zlashtirish dinamikasi, amaliy ko'nikmalari va ta'limiy faolligini to'liq aks ettira olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, fuzzy mantiq asosida test natijalari, amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlar va LMS faolligini yagona ko'p mezonli tizimda baholash imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv noaniqliklarni hisobga olgan holda formativ va summativ baholashni takomillashtirishga xizmat qiladi.